

CHO‘QAN VALIXANOV TADQIQOTLARIDA “MANAS” EPOSINING
XUSUSIYATLARI

Abduvalitov Yergash Buranevich,

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Qozoq tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, p.f.d., professor

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18924963>

Annotatsiya. Maqola qozoq xalqining buyuk ma’rifatparvar olimi Ch.Valixanovning qirg‘iz tili va folklorini o‘rganishga bag‘ishlangan.XIX asrning ikkinchi yarimida qozoq va qirg‘iz xalqlarining adabiy aloqalarini o‘rganish jarayonida buyuk epos “Manas” haqida izlanishlari batafsil yoritildi.

Kalit so‘zlar: epos, folklor, “Manas”, ma’rifatparvarlik, M.Avezov, qozoq-qirg‘iz adabiy aloqalari, Ch. Valixanov.

Аннотация. Статья посвящена изучению кыргызского языка и фольклора великого просветителя казахского народа Ч.Валиханова. Подробно освещены его исследования великого эпоса «Манас» в процессе изучения литературных связей между казахским и кыргызским народами во второй половине XIX века.

Ключевые слова: эпос, фольклор, «Манас», просветительство, М.Авезов, казахско-кыргызские литературные связи, Ч. Валиханов.

Annotation. The article is devoted to the study of the Kyrgyz language and folklore of the great enlightener of the Kazakh people Ch. Valikhanov. His research on the great epic "Manas" in the process of studying the literary relations of the Kazakh and Kyrgyz peoples in the second half of the 19th century is covered in detail.

Keywords: epic, folklore, “Manas”, enlightenment, M. Avezov, Kazakh-Kyrgyz literary relations, Ch. Valikhanov.

Kirish. XIX asrda yashagan yetuk qozoq ma’rifatparvar olimi Chokan Valixanov qirg‘iz tili va xalq og‘zaki ijodiga katta qiziqish bilan yondashgan. Aynan u XIX asrning 2-yarmida qozoq-qirg‘iz adabiy aloqalari tarixning ilk sahifasini bitgan. Qirg‘iz xalq durdonasi -"Manas" qahramonlik eposining ilk kashfiyotchisi va tadqiqotchisi sifatida uning xizmatlari ayniqsa kattadir. U kirg‘iz xalqining hayoti, tarixi va madaniyatini o‘rganish uchun juda ko‘p ishlar qiladi. Shuning uchun ham qirg‘izlar uni haqli ravishda o‘zlarining ham birinchi ma’rifatparvar olimi deb biladi.

1856 yilda chor hukumati Qirg‘izistonning tabiiy sharoitini o‘rganish uchun M.M. Xomentovskiy boshchiligida harbiy-ilmiy ekspeditsiya tashkil qiladi. Uning tarkibida Ch. Valixanov ham bor edi. Ekspeditsiya may-iyun oylari davomida olib boriladi.

Adabiyotlar sharhi. 1857 yilda Ch. Valixanov yana Qirg‘izistonga safar qiladi. Bu safar olim qirg‘izlar hayotiga oid boy materiallar to‘plash bilan birga, “Manas” qahramonlik dostonini ilk bor yozib oladi. Olim "Kukatoyxonning o‘limi va ma’rakalari" nomli qiziqarli bir parchasini rus tiliga tarjima qilib, dostonni tarixiy-adabiy tahlil qiladi.

"Manas" xaqidagi ilk ma’lumotni uning “Istiqlolga safar kundaligi” dan o‘qiymiz.

Tadqiqot metodologiyasi. "Kundalik" muallifi qirg‘iz xalqi hakida ko‘plab etnografik ma’lumotlar, rivoyatlar, afsonalar, maqolalar, baxshi va oqinlar bilan

suxbatlarni yozib oladi. U yozadi: “26 may kuni bir kirg‘iz bilan uchrashdim. U "Manas" dostonini biladi. Doston tili so‘zlashuv tiliga qaraganda ancha tushunarli. Manas afsonasining qahramoni jasur no‘g‘ay pahlavoni". Uning butun hayoti mushtlashuv va go‘zallarni axtarish bilan o‘tadi. Fikrlashi u qadar sharqona emas. u ko‘pincha otasini koyiydi, mollarini haydab ketadi, unga qo‘pol muomalada bo‘ladi. Bu-g‘alati. Umuman, barcha ko‘chmanchilar qaramlikni hurmat qiladi, oqsoqolarga e‘tibor bilan karaydi". Keyin doston syujeti qisqacha bayon qilinadi. Biroq matn berilmaydi. Yuqorida aytilganidek, Ch. Valixanov dostonidan parcha yozib olgan, xolos. Bu parchaning qirg‘izcha matnini akademik A.X. Margulan 1964 yili oxiridagina arxivlardan topa bildi.

O‘z “Kundalik” ida Ch.Valixanov “Manas” dostonini tavsiflashga ilk urinishni amalga oshirib, bosh qahramonga baho beradi. Asarning batafsil tahlilini "Qirg‘izlar haqida yozuvlar" ilmiy asaridan topamiz.

Natijalar. “Yozuvlar” qirg‘iz xalqi tarixiga oid ma’lumotlar, tarixiy rivoyatlar, qirg‘izlarning tarqalishi, iqtisodiyoti, maishiy turmushi, an‘ana va urf-odatlar, tili va adabiyotiga oid manbalarini o‘z ichiga oladi. Ular juda katta ahamiyatiga ega bo‘lib, sharqshunoslik faniga qo‘shilgan ulkan hissadir. Issiqko‘lning paydo bo‘lishi haqidagi rivoyatning o‘zi katta ilmiy qiziqish uyg‘otadi. U qirg‘izlarning yaxlit folklor asari sanaladi.

“Qirg‘izlar haqida yozuvlar”da “Manas” haqida uning tarixiy manbalari, bosh qahramon obrazi, qozoq va qirg‘iz xalqlarining do‘stligi haqidagi ma’lumotlar keng o‘rin egallagan. Valixanov yozadi: “Manas” qirg‘iz xalqining yagona romantik asari. Garchi bu epik saga, keyinrok tuzatish va kiritmalarga uchrasalarda, uning syujeti yoki asosi, albatta, bu dasht eposiga favquladda muhabbat va xurmatga qaraganda, qirg‘iz xalqining ana’nvaiy xotiralariga ega”.(1; 362)

“Manasda” qaysoq va qirg‘izlar no‘g‘aylar bilan umumiy manfaatga ko‘ra bog‘liq bo‘lgan alohida xalq sifatida tanishtiriladi. Ularning munosabatlari favqulodda do‘stona, hatto qandoshlarga: no‘g‘aylar va qaysoqlar birlik davrini oltin asr deb ataydi. Har bir rivoyat boshida “No‘g‘ay va qozoqlar baxtli damlarda...” deb so‘z boshlanadi.

“Yozuvlarda”, “Manas” dostoniga umumiy baho beriladi. “Shubha yo‘qki”, deb yozadi u,- “Manas” qirg‘izlarning she’riy shakldagi asosiy va ehtimol yagona asari, xalq dahosi ijodi. “Manas” bu qomus, xalqning barcha ertak, qissa, rivoyat, geografik, diniy va akliy bilimlari va ma’naviy tushunchalarining jami... Manas - butun xalqning asari, ko‘p yillik mehnatlar mevasi.(2; 367)

“Manas”ga “Djungoriya haqida ocherklar”da yanada to‘liq baho beriladi.

Unda muallif yana dostonning qisqacha mazmunini keltiradi, Manas va uning shaxsi, kelib chiqishi, “O‘jar va hissiyotli dasht odami” sifatidagi obrazi haqida ko‘p gapiradi.

Ch. Valixanov “Qirg‘izlar haqida yozuvlar”ning, “Qimmat baxo lison” bo‘limida qirg‘iz xalq she’riyatini uch turga bo‘lib tasniflaydi. 1-turga ertaklar va “xalqning kelib

chiqishi va mashhur kabila boshliqlari hayotidan ajoyib voqealar”ni kiritidi va ertaklarga syujet va kompozitsion jihatidan tavsif beradi. ,

Qirg‘iz xalq she‘riyatining 2-turiga “Qabilalarning urushlari bahodirlar jasorati haqida epik hikoyalarni” kiritadi, ularni dostonlar yoki “qahramonlik sagalari” turi deb ataydi va ogohlantiradi. Ulardan xalqniki asl va qaysoqlardan o‘zlashtirilganlarni farqlash kerak.

“Fikrimizcha - yozadi muallif, doston eng yangi qo‘shimcha va o‘zgartishlarga uchragan. Ehtimol, uning prozaik namunalar bir yaxlitlikka nomlanishi ham ancha keyingi paytdagi ishdir. “Manas” yaxlit ko‘rinishga ega bo‘lgan ko‘plab alohida epizodlardan tashkil topgan”. (3; 420)

Ch. Valixanov epik she‘riy asarlarda she‘r tuzilishiga oid qiyoslar fikrlari katta qiziqish uyg‘otadi. “Epik asar, deb yozadi u. O‘lcham ega. tuzilishi She‘r nozikligi va qofiyaga ohangdoshligidadir”. Shu ikkilik kofiya ortidan quvib, ular ajabtovur sodda o‘xshatishlar qiladi, maksad fakat metrologiya talabini qondirish. Masalan, Ko‘katoyxon ta‘zimi haqidako‘shikning boshlanishi:

Eltin erdin kishi ekan,

Ata (li) yurtin boshi ekan. ya‘ni

Oltin egarning qoshi ekan.

Butun yurtning boshi ekan.

Ko‘k dunonin basi bar,

Ko‘katoy xonnin asi bar. ya‘ni Ko‘k do‘nanning boshi bor,

Ko‘katoy (xon)ning oshi bor.

Bu o‘rinda Oltin er (oltin egar) va ko‘k dunan so‘zlari fakat ata (li) yurt Ko‘katoy xon so‘zlariga ohangdoshlik uchun eslatiladi. (4; 367)

Ch. Valixanov “Manas” dan parcha yozib olib va tahlil qilib ulkan ilmiy kashfiyot qildi.

A. Margulanning yozishicha, Ch. Valixanov “Manas” eposini ilk marta kadet korpusida o‘qiyotganida eshitgan. “Manas” bilan tanishish uchun unda imkon bor edi. U o‘sha davrda Omskka kelgan katta yuz qozoqlari bilan ko‘p uchrashadi. Ikkinchidan, Ch. Valixanov XOI ga alohida qiziqish bildirib, uning namunalarini to‘plab yurgan payt edi. Margulanning fikricha, Ch. Valixanov “Manas” haqida ilk bor Frinel yozuvlaridan (1845) o‘qigan. Shu taxlit u “Manas” bilan tanishishga tayyorlangan.

Sobiq ittifoq davrida “Manas” eposi bo‘yicha birinchi fundamental tadkikot M.O.Avezov qalamiga tegishli. U Ch.Valixanovdan keyin dunyo kitobxonlarini “Manas” bilan tanishtirib, buyuk ma‘rifatparvar ishini davom ettirdi. Qozok olimi tufayli “Manas” nafaqat Qirg‘iziston, balki boshqa respublikalarda ham o‘rganila boshladi.

1923-1928 yillarda Leningrad DU tahsil ko‘rgan M. Avezov turk filologiyasi (qozokshunoslik) kafedrasida aspiranti sifatida qo‘lyozma bilan tanishish uchun yuboriladi. Unga yordam berish so‘raladi.

30-yillardayoq "Manas" haqida rus va qozoq tillarida bir necha makola chop etiladi. Bular orasida "Qirg'iz xalqining buyuk eposi "Manas"ga kirish", "Manas qirg'iz qahramonlik dostoni", "Manas baxshilari va yerning tinglovchilar muhiti" kabilarni ko'rsatish mumkin.

M.Avezov maqolalariga ma'lum darajada bir yoqlamalik xos edi, buni ayniqsa "Qirg'iz va qozoq folklori eng nodir yodgorliklari" da ko'rish mumkin. Bu maqolada M. Avezov akad. Radlovning qirg'iz folklori faqat epos, qozoq folklori faqat lirikadan iboratligi haqidagi fikriga qarshi fikr bildiradi. U zamonaviy fan qirg'iz va qozoq folklori epos, lirika va ko'plab janrlarga birdek ega ekanini ta'kidlaydi. Bu xalqlar folklorida sifat tafavut haqida masala quyilishi mumkinligini bildiradi. M. Avezov fikricha, "Manas" o'lchamlariga ko'ra she'riyat ummoni, u birdaniga yaralmagan, kattalashib syujeti kengayib borgan. Epos davomida ko'plab avlodlarning ijodiy ishtiroki mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

M.Avezov "Manas"ni tadqiq qilib, o'z maqolalarida uni Sharq va G'arb epik asarlari: yunonlarning "Iliada va Odisseya", roman xalqlarining "Roland haqida qo'shiq", "Nibelunglar"i, fors "Shohnoma"si, fin "Kalevala"si, mo'g'ul "Teseriada"si, hind "Maxabxarata"si va rus eposlari bilan qiyoslaydi. M.Avezov bu asarlarning ko'pchiligini rus tilida o'qigani bois, ularni uslub va obrazli poetik qiyoslashga urinmay, balki syujeti, bayon uslubi ko'rsatish liniyasi, personajlar tasviri bilan yaqinligin ta'kidlaydi.

Ko'rinadiki, M.Avezov "Manas"ga umuman yuqori baho bergan holda uning g'oyaviy-badiiy qimmati haqida salbiy fikr bildirganligi o'sha davr mafkurasi bilan bog'liq.

30-yillarda "Manas"ning birgina Sagimboy varianti bilan ishlagan M.Avezov 40-yillarga kelib uni boshqa variantlari bilan kiyoslash imkoniga ega bo'ldi.

U 50-yillarda "Manas"ga bag'ishlangan barcha konferensiyalarda ishtirok etib, "Manas"ni turli g'ayri ilmiy fikrlardan himoya kiladi. "Manas"ning xalk boyligi ekanini, uni kayta tiklash zarurligini uqtiradi. Shu tariqa M.Avezov qardosh Qirg'iziston adabiyotshunoslik faniga ulkan hissa qo'sha oldi.

Ch.Valixanov va M.Avezov an'analarini K.D.Jumaliyev munosib davom ettirdi. U og'zaki ijod orqali xalq hayoti, tarixi, madaniyati va sh.k. haqida bilib olish mumkinligi, folklor, ayniqsa epos, asrlar o'sha ko'plab ijtimoiy farmatsiyalardan o'tib, ularning ta'sirini his etishini ta'kidlaydi. Eposning dastlabki varianti xalqparvarlik bo'lgani, u keyin o'zgartirilishi mumkinligi, bu xalq ermagi emas, davr talabi ekanini bildiradi. Akademik K.D.Jumaliyevning nazariy xulosalari qirg'iz manasshunoslari ishlarida o'z aksini topadi. K.D.Jumaliyev kardosh xalqlar eposini qiyosiy o'rganish muommalarini ham o'rta tashlaydi, "Manas"ni qozoq tiliga tarjima qilishda faol qatnashadi.

Xulosa. Taniqli qozoq adabiyotshunosi Ye.S. Ismoilov O'rta Osiyo va Qozog'iston xalq og'zaki ijodini o'rganish bo'yicha katta ishlar qilib, muhim xulosalarga keladi. Y.S. Ismoilov xulosasiga ko'ra, epos hamma vaqt ham tarixiy voqealikni aks ettiravermaydi.

Qirg'iz "Manas" yo qozoq baxodirlik eposini asl tarixiy voqealar aksi deb qarashi to'g'ri emas. Ulkan tarixiy hodisalar epos va xalq og'zaki ijodining boshqa shoirlari asosiy g'oyasiga turtki bo'lishi, qandaydir syujet motiviga asos bo'lishi mumkin. Muallif qozoq jirshi va jirau hamda qirg'iz verchilari o'rtasida umumiylik ko'pligini, kozok jomakshu B oqinlari Jambul, Kenen va ko'plab boshqalar "Manas"ni yaxshi bilgani va undan parchalar kuylaganini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, qozoq olimlari "Manas"ni o'rganish bilan qirg'iz adabiyotshunosligi, uning ma'naviy madaniyati tarixiga munosib qo'shdilar hissa qardosh ikki va xalq do'stligini yanada mustahkamlashga xizmat qildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Валиханов Ч. Собранные сочинание. В5.1. Алматы, 1961-352-с.
2. Дюршин Д. Теория сравнительных изучение литературы. – М.: Прогресс, 1979-320-с
3. Жирмунский В.М. Тюрских героических эпых! – Л.: Наука, 197.-726-с.
4. Рашидов А. Чингиз Айтматовнинг бадий олами.-Т.: Уқитувчи, 2008.-183 б.

